

JAMIYATDA SIYOSIY ONGNI SHAKLLANTIRISHDA SIYOSIY PUBLITSISTIKANING O'RNI: JADID VA ZAMONAVIY MATBUOT TAHLILI

Sadillayev Ikromxo'ja Dilshod o'g'li

TDSHU Jurnalistika yo 'nalishi 2-bosqich talabasi

sadillayev1303@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada siyosiy publitsistikaning milliy davlatchilik g'oyalarini shakllantirishdagi analitik salohiyati jadid matbuoti va zamonaviy publitsistik materiallar qiyosi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida jadidchilik harakati vakillari, xususan Mahmudxo'ja Behbudi va Cho'lpon publitsistikasi o'rganilib, ularning jamiyatda siyosiy ong va milliy tafakkurni shakllantirishdagi o'rni yoritildi. Shuningdek, zamonaviy publitsistik materiallar asosida bugungi ommaviy axborot vositalarining siyosiy jarayonlarga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, kontent-analiz va tarixiy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, jadid publitsistikasi milliy davlatchilik g'oyalarining shakllanishida muhim nazariyasos bo'lib xizmat qilgan, zamonaviy publitsistika esa ushbu an'ananing yangi bosqichdagi davomidir. Maqolada siyosiy tahlilchilar tayyorlash jarayonida milliy publitsistik merosdan foydalanish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, siyosiy publitsistika, milliy davlatchilik, siyosiy tahlil, analitik salohiyat, ommaviy axborot vositalari, kontent-analiz, qiyosiy tahlil, ijtimoiy ong, publitsistik meros

Abstract: This article examines the analytical potential of political journalism in shaping the ideas of national statehood based on a comparative analysis of Jadid press materials and modern journalistic works. The study focuses on the publicistic writings of representatives of the Jadid movement, particularly Mahmudxo'ja Behbudi and Cholpon, highlighting their role in forming political consciousness and national identity. In addition, modern journalistic materials are analyzed to determine the influence of mass media on contemporary political processes. The research employs comparative analysis, content analysis, and historical methods. The findings indicate that Jadid journalism served as a significant theoretical foundation for the formation of national statehood ideas, while modern journalism represents its development at a new stage. The article substantiates the importance of integrating national journalistic heritage into the training of political analysts.

Keywords: Jadidism, political journalism, national statehood, political analysis, analytical potential, mass media, content analysis, comparative analysis, social consciousness, journalistic heritage

Аннотация: В данной статье рассматривается аналитический потенциал политической публицистики в формировании идей национальной

государственности на основе сравнительного анализа материалов джадидской прессы и современных публицистических произведений. В ходе исследования изучены публицистические работы представителей джадидского движения, в частности Махмудхо 'ja Behbudi и Чулпона, раскрыта их роль в формировании политического сознания и национального мышления. Также проанализированы современные публицистические материалы с целью выявления влияния средств массовой информации на политические процессы. В работе использованы сравнительно-аналитический, контент-анализ и исторический методы. Результаты показывают, что джадидская публицистика сыграла важную роль в формировании идей национальной государственности, а современная публицистика является ее развитием на новом этапе. Обосновывается необходимость использования национального публицистического наследия в подготовке политических аналитиков.

Ключевые слова: джадидизм, политическая публицистика, национальная государственность, политический анализ, аналитический потенциал, средства массовой информации, контент-анализ, сравнительный анализ, общественное сознание, публицистическое наследие

KIRISH

Globalashuv jarayonlari kichik davlatlarning madaniyati va milliy davlat boshqaruvlarini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Shu sababli har bir mamlakat va jamiyatda, bunday xatarlardan himoyalaniish uchun nafaqat davlat boshqaruv tizimidagi hodimlarni balki, aholini ham siyosiy mafkurasini shakllantirishda siyosiy publitsistikaning ahamiyati nihoyatda muhimdir.

Xorijiy gegemon davlatlarning boshqa mamlakatlar fuqarolarining ongiga "yumshoq kuch" orqali ta'sir etishi yoki ular mafkurasida amaldagi hukumatga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg'otishga urinishlarni ko'pgina davlatlarni parokandaligiga olib kelgani tarixdan juda ko'p marta isbotlangan. Masalan 2010-yil 17-dekabrda Tunisda boshlangan hukumatga qarshi birgina norozilik kayfiyatidagi hodisa, butun arab mamlakatlaridagi siyosiy holatni tubdan o'zgartitib yubordi. Bu tartibsilik va namoyishlarning keng yoyilishda asosiy omil ommaviy axborot vositalari bo'lgan bo'lsa asosiy kamchilik esa aholini vaziyatni siyosiy jihatdan tahlil qila olmaganligidir. Buning oqibatida rijovlanayotgan yoki iqtisodiy ko'rsatkichi yuqori bo'lgan tinch davlatlarda hali hanusgacha davom etayotgan qashshoqlik va sisosiy beqarorlik holatlari kuzatilmoqda. Aholining chet el propagandasiga aldanib, ko'r-ko'rona harakat qilishida albatta hukumatning ham xatolari yetarlicha. Sababi ommaviy axborot vositalariga qo'yilgan senzura sababli, fuqarolar orasida ularga bo'lgan ishonch pasaygan va ular boshqa "aniq maqsad"ga yo'naltirilgan xorijiy axborot manbalaridan dizinformatsion ma'lumotlarni mafkuraviy filtirsiz qabul qilib olganlar. Arab bahoridan jabr ko'rgan ko'pgina arab mamlakatlaridagi klassik diktatura rejimi, o'zining

xavfsizligini o'ylab aholi orasidagi siyosiy ongni oshirmaganligi oxir oqibat o'zing zarariyu dushmanni foydasiga ishlagan. Yuqorida ma'lumotlarga tayanib xulosa qilish mumkinki ommaviy axborot vositalarining jamiyat mafkurasida ma'lum bir g'oyani shakllantirishdagi ahamiyati katta.

Qurolli urushlardan ko'ra axborot urushi xavfli bo'lib turganda ayniqsa publitsistikaning siyosiy yo'nalishiga ehtiyoj ortib boradi. Kadrlarda siyosiy tahlil ilmini rivojlantirishda adabiyotlar, darsliklar, qo'llanmalar asosiy ro'l o'ynasa, jamiyatda bu ilmni rivojlantirishda aynan ommaviy kommunikatsiyalardan foydalanish zarur. Buning yorqin misolini 2026-yil 28-fevralda AQSH va Isroil tomonidan Eron Islom Respublikasiga qilingan havo zarbalari va Oliy rahnamo Ali Xomana'iy o'ldirilishidan kutilgan maqsadlari ya'ni Eron hukumatini amaldagi davlat boshqaruv shaklidan norozi bo'lgan fuqarolari yordamida ag'darish rejasi, milliy axborot agentliklarining quyidagi strategik axborot uzatish usuli orqali amalga oshmay qoldi.

Eron davlatning IRIB, Tasnim, Fars kabi ommaviy axborot vositalari AQSh va Isroil hujumlarini shunchaki davlatga emas balki butun Eron tarixi va sivilizatsiyasiga qilingan tajovuz sifatida talqin qildi. Ular havo hujumlari natijasida zarar tarixiy yodgorliklar, tinch aholi shu jumladan Minob maktabida o'ldirilgan o'quvchi qizlar haqidagi lavhalar jamiyatda g'azab va milliy g'urur tuyg'usini uyg'otdi. Asta sekinlik bilan urush boshlangungacha davom etayotgan hukumatga qarshi namoyishlar hujumlar boshlangandan so'ng keskin pasaydi. Jurnalistlar har qanday ichki norozilikni "dushmanlarning loyihasi" yoki milliy xavfsizlikka tahdid sifatida baholadi, bu esa namoyishchilarni mamlakatdagi keskin vaziyatda "millat xoini" bo'lib qolishidan tiyilishga majbur qildi. Ular ommaviy ravishda milliy birlik g'oyasini targ'ib qila boshladilar. Yangi Oliy rahnamo etib Muftabo Xomana'iy tayinlanganidan keyin ommaviy axborot vositalari uning atrofida "muqaddas mudofaa" g'oyasini shakllantirdi. Bu paytda hatto hukumatda nisbatan tanqidiy qarashda bo'lgan muholif nashrlar ham fuqarolarni urush paytida milliy manfaatlarni birinchi o'ringa qo'yishga chaqirdi. Axborot nazoratining kuchaytirilishi g'arbning "psixologik operatsiyalari" ta'sirini kamaytirdi, bu esa Eron hukumatiga axborot maydonida ustunlikni saqlab qolishga yordam berdi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki mamlakatda siyosiy publitsistikaning faol ishlashi, jamiyatdagi barqarorlikni saqlashda katta yordam beradi. Ko'p holatlarda esa matbuotida senzura mavjud bo'lgan davlatlarda tashqi kuchlarning ta'siri yuqori bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur tadqiqotda siyosiy publitsistikaning milliy davlatchilik g'oyalarini shakllantirishdagi o'rni qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy va zamonaviy manbalar o'zaro taqqoslanib, ularning g'oyaviy yo'nalishi, uslubi hamda jamiyatga ta'sir darajasi tahlil qilindi. Adabiyotlar tahlili jarayonida jadid matbuotiga oid ilmiy manbalar, xususan Mahmudxo'ja Behbudiyniing publitsistik maqolalari, shuningdek, Cho'lponning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi

chiqishlari asos qilib olindi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: qiyosiy tahlil usuli, kontent-analiz, tarixiy yondashuv. Tahlil mezonlari sifatida publitsistik materiallarning asosiy g'oyasi, muammoni yoritish usuli va auditoriyaga ta'sir darajasi tanlab olindi.

O'zbekiston hududida ham qadimdan imperiyalar paydo bo'lishi, davlatni boshqarishning yangi shakllari rivojlanib borishi bilan siyosiy qo'lyozmalar va asarlarga ehtiyoj nafaqat amaldorlar balki fuqarolar orasida ham ortib bordi. Ularga "Avesto" (mil. Avv. VII-VI asrlar. Qadimgi Xorazm va Baqtriya), "Fozil odamlar shaxri" (Abu Nasr Farobiy. X asr Somoniylar davlati va Abbosiylar xalifaligi), "Qutadg'u bilig" (yusuf Xos Hojib. 1069-1070-yillar Qoraxoniylar davlati), "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" (Abu Rayxon Beruniy. 1000-yillar Xorazm. Ziyoriylar va Ma'muniylar davri), "Temur tuzuklari" (Amir Temur. 1390-yillar Temuriylar imperiyasi) kabi asarlarni misol qilib keltirish mumkin. Keyinchalik, "Xonliklar" davrida noto'g'ri davlat boshqaruvi va Chor rossiyasining mustamlakachilik harakatlari natijasida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol tobora inqirozga yuz tutib bordi. Shu sababli fuqarolarning siyosiy-huquqiy bilimlarini oshirish uchun milliy nashrlarga ehtiyoj tobora orta boshladi.

Turkistonda 1870-yilda rus istilochilari tomonidan nashr etilgan mahalliy tildagi ilk bosma gazeta Turkiston general-gubernatorligining nashri „Turkestanskiye vedomosti“ gazetasining o'zbekcha varianti edi. 1883-yildan mustaqil ravishda chiqa boshlagan „Turkiston viloyatining gazetasi“ birmuncha vaqt (1872-yil iyulidan 1873-yilning fevraliga qadar) Peterburgda nashr etilgan. Sahifalarida podsho Rossiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati targ'ib qilingan, mahalliy aholini „oq podsho“ va uning Turkistondagi amaldorlari amrfarmonlarini so'zsiz bajarishga undalgan. Gazetada rasmiy materiallardan tashqari, paxtachilik, ipakchilik haqida, fan, texnika, adabiyot va san'atga doir materiallar ham e'lon qilingan.³⁶ Keyinchalik Turkistonda jadidchilik harakati rivojlanib borib, fuqarolarning ongiga milliy davlatchilik, o'zlik va ilm-ma'rifat g'oyalarini singdirish uchun hamda „Turkiston viloyatining gazetasi“da senzura kuchli bo'lganligi sababli, milliy nashrga ehtiyoj ortib bordi. 1906-yil 27-iyunda Toshkentda Ismoil Obiliy noshirligi va muharrirligi ostida ilk milliy nashr "Taraqqiy" nashr etildi. Uning saxifalarida chor Rossiyasining Turkistonda olib borayotgan mustamlakachilik siyosatini dadillik bilan fosh qilishga bag'ishlangan maqolalar, xabarlar va ma'lumotlar bosilgan. Shundan so'ng Turkistonning ko'pgina hududlarida milliy jurnallar va gazetalar ko'paya boshladi. Ulardagi asosiy maqolalar jonkuyarlik, tanqid, ogohlantirish va da'vat ruhida bo'lib, aholi orasida tezda ommalashib ketdi.

³⁶ Pidayev T., Matbuot – millat chirog'i, T., 1999; Abduazizova N., Turkiston matbuoti tarixi (1870 – 1917), T., 2000.

2020-yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan birinchi bor "O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor" yaratilayotgani xabar qilgan bo'lsa 2021-yil 17-avgustdagi "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan intervyusida: "...o'tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz «jadidchilik», ya'ni, yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqanlarini barchamiz yaxshi bilamiz. Bu ulug' zotlarning maqsadi – jaholat va qoloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg'or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo'liga olib chiqishdan iborat edi...

Shu ma'noda, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan «Yangi O'zbekiston» g'oyasi zamirida ana shunday ulug' ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo'lamiz..."³⁷ degan so'zlari bilan "Uchinchi renessans" davrini qurishda jadidlar g'oyalarining muhim ekanligini ta'kidladi. Shu nuqtai nazardan jamiyatni siyosiy mafkurasini shakillantirishda jadid siyosiy publitsistikasini zamonaviy jurnalistika bilan solishtirib, ulardagi asosiy g'oya va uslublarni o'zaro integratsiyalash orqali amalga tatbiq etish samarali natija beradi. Dastlab jadid adabiyoti va matbuotidagi bir nechta maqolalardagi siyosiy tahlil mavjud bo'lgan qismlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. 1913-yildagi "Oyna" jurnalining 1-sonida bosilib chiqqan "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida jamiyat taraqqiyoti uchun nafaqat o'zbek tilini bilish balki turk, fors, arab va rus tilini bilish lozim ekanligini real muammolar misolida siyosiy jihatdan tushuntirib beradi. O'z maqolasida rus tilini bilish ehtiyojini "Bizg'a lozimki o'z naf'imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarida o'quylik. Davlat mansablarig'a kirayluk. Vatanimizg'a va o'z dinimizg'a xidmat etayluk. Musulmon bo'lub turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islom va millatga xidmat ilmsiz bo'lmaydur. Masalan, bugungi «podsholik duma»g'a o'z din va millatimiz naf'ig'a so'zlamog bizlar uchun mumkin bo'lur. Ammo anda borib so'ylaguvchi kishi bizg'a yo'q. Anda borib naf'i bir o'n-sana o'qumog kerak, zamondan, qonundan xabardor bo'lmoq kerakdur..."³⁸ kabi jumlar bilan ifodalaydi. Abdulhamid Cho'lpon 1914-yil "Sadoi Farg'ona" gazetasining 6-iyundagi sonida "Vatanimiz Turkistonda temiryo'llar" nomli maqolasida Turkistonga temiryo'llar kirib kelishi bilan, tijoratning rivojlanishini inobatga olmay o'z yerlari sotayotgan mahalliy yer egalariga: "...oqcha bitar, qadr ketar, ammo ul yerlarni topib bo'lmas. Zamonamiz shundog' zamondurki, tirikchilik bilan raqobot qilmoqg'a, maishat zulmidan qutulmoqg'a qo'lda yer bo'lmoq kerakdur. Yer sotgan

³⁷ <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/yangi-ozbekiston-va-uchinchi-renessans>

³⁸ "Oyna" jurnali, 1913 yil, 1-son, 12-14-betlar.

pulg'a qiziqg'anlarni maishat, tirikchilik toshqini va to'lquni kelub urub, parcha-parcha qilmog'ida shubha yo'qdur. 100 so'mlik yerimiz bora-bora obod bo'lub, 5 – 10 ming so'mg'a ham chiqar, buni yaxshi o'ylamoq kerak..."³⁹ deb yozadi.

Ushbu maqoladagi yondashuv siyosiy-iqtisodiy analizlarga asoslanganligi yuqoridagi tahlildan ma'lum. Umuman olganda jadid matbuotida hozirgi milliy siyosiy publitsistikamizni tarixiy ildizlarini ko'rishimiz mumkin. Ular muammoni aniq, real misollar bilan sodda ko'rinishda taqdim etib, o'z o'rnida ularga yechim ham taklif qilishgan. Jadidlar maqolalarida badiy uslubdan biroz ko'p foydalanilgan. Buning sababi o'sha paytdagi aholining katta qismida savodxonlik darajasining yetarli bo'lmaganligi deyish mumkin. Shuning uchun ular o'z milliy ijtimoiy-siyosiy qarashlarini nafaqat matbuotda balki, badiy adabiyotlar teatr pyessalari ko'rinishida ham yetkazishga harakat qilganlar. Resurslar kamligi sababli ma'lumot yetkazish biroz sekin va odatda yozma shaklda bo'lgan. Zamonaviy jurnalistikada esa resurslar yetarli, axborotni yetkazishni esa bir qancha visual va multimediyaviy ko'rinishlari mavjud. Ma'lumotni televideniya, radio, ijtimoiy tarmoqlar orqali tez yetkazish imkoniyati esa hozirgi jurnalistikaning asosiy yutug'i hisoblanadi. Biroq ayni paytda rasmiy axborot manbalaridan ko'ra hususiy OAVlarning faolligi va ulardagi fikrlarning subyektivligi ba'zi hollarda kuzatuvchilarda noto'g'ri tushunchalarning shakllanishiga olib kelmoqda. Jurnalistlar esa axborot yetkazishda faqat ma'lumot beruvchi pozitsiyasini saqlab qolgan siyosiy tahlilchilarning maqolalar esa kamdan-kam hollarda aholiga yetib boradi. Buning ustiga yozilish uslubi murakkabligi va ilmiy terminlardan ko'p foydalanilishligi sababli iste'molchilarni yetarli darajada o'ziga jalb qila olmaydi.

NATIJALAR

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, jadid publitsistikasi milliy davlatchilik g'oyalarini shakllantirishda muhim omil bo'lgan. Jadidlar o'z maqolalarida jamiyatdagi muammolarni ochiq va sodda tarzda yoritib, ularning yechimini ham taklif etganlar. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida til masalasi orqali jamiyat taraqqiyotining siyosiy va ijtimoiy jihatlarini asoslab beriladi. Muallif o'z fikrlarini real hayotiy misollar orqali tushuntirib, o'quvchini chuqur o'ylashga undaydi. Shuningdek, Cho'lponning "Vatanimiz Turkistonda temiryo'llar" maqolasida iqtisodiy jarayonlar tahlili orqali siyosiy xulosa chiqariladi. Bu esa jadid publitsistikasida analitik yondashuv mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, jadid publitsistikasi muammoni aniq qo'yib, uni sodda tilda tushuntirgan va amaliy yechim taklif qilgan.

Zamonaviy publitsistika jadidlar boshlab bergan an'anani davom ettirgan holda, yangi texnologiyalar asosida rivojlanmoqda. Bugungi kunda internet nashrlari orqali siyosiy va ijtimoiy muammolar keng yoritilmoqda. Masalan, zamonaviy tahliliy maqolalarda iqtisodiy islohotlar, davlat boshqaruvi va jamiyatdagi muammolar tahliliy

³⁹ 1914–yil "Sadoi Farg'ona" gazetasining 6-iyundagi soni

yondashuv asosida yoritiladi. Bunda mualliflar faktlarga tayangan holda fikr bildiradi va muammoning sabab hamda oqibatlarini ko'rsatib beradi.

Shu jihatdan zamonaviy publitsistika analitik yondashuvga asoslanib, keng auditoriyani qamrab oladi va tezkorligi bilan jadid matbuotidan ajralib turadi.

Mezon	Jadid publitsistikasi	Zamonaviy publitsistika	Izoh
Maqsad	Milliy uyg'onish	Siyosiy tahlil	Yo'nalish farqi mavjud
Uslub	Ma'rifiy	Analitik	Yondashuv evolyutsiyasi
Vosita	Gazeta	Internet va OAV	Texnologik farq
Ta'sir	Ong uyg'otish	Qaror shakllantirish	Ta'sir darajasi oshgan

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, jadid publitsistikasi zamonaviy siyosiy tahlilning shakllanishida muhim tarixiy asos bo'lib xizmat qilgan. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Zamonaviy publitsistika esa ushbu an'anani davom ettirib, yangi shakl va usullar orqali jamiyatga ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining rivojlanishi publitsistikaning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Shu nuqtai nazardan, siyosiy tahlilchilar tayyorlash jarayonida jadid publitsistikasi tajribasidan foydalanish muhim hisoblanadi. Bu esa milliy model asosida siyosiy tahlil maktabini shakllantirishga xizmat qiladi. Nafaqat matbuot qolaversa jadidlar uslubini zamonaviy multimediyaviy axborot yetkazuvchi vositalarda, hususan ijtimoiy tarmoqlarda qo'llashning zamonaviy uslublarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, siyosiy publitsistika milliy davlatchilik g'oyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Jadid matbuoti bu jarayonning tarixiy asosini tashkil etgan bo'lsa, zamonaviy publitsistika uning mantiqiy davomidir. Jadid matbuoti chuqur tahlil, ilmiy asos va strategik fikrlashga tayangan holda jamiyatni tubdan o'zgartirib, uni taraqqiy etkazishni maqsad qilgan bo'lsa, zamonaviy publitsistika ko'proq emotsional ta'sir tezkor munosabat va jamoatchilikni axborotlardan xabardor etishga asoslanib qolgan. Shu bois, bugungi matbuot rivojida jadidlarning analitik va tizimli yondashuvini, hozirgi jurnalistikaning tezkor, ta'sirchan, texnologiyalashgan multimediyaviy uslubi bilan integratsiyalash, zamonaviy matbuotni haqiqiy jurnalistikaning asosiy maqsadi bo'lmish muammolarni yoritish orqali ularga yechim taklif qilish darajasiga olib chiqadi. Ana shundagina matbuot nafaqat axborot yetkazuvchi balki jamiyat taraqqiyotini belgilovchi "to'rtinchi hokimiyat"ga aylanishi mumkin. Har bir jurnalist zamonaviy jamiyatda yangi jadid bo'lishi mumkin, agar u

faqatgina axborot yetkazuvchi bo'lishni emas, balki jamiyatni o'zgartirishni maqsad qilgan bo'lsa. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: jadid publitsistikasi namunalarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish, siyosiy tahlilchilar tayyorlashda milliy tajribadan foydalanish, zamonaviy publitsistikada tarixiy merosni integratsiya qilish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1 Pidayev T., Matbuot – millat chirog'i, T., 1999; Abduazizova N., Turkiston matbuoti tarixi (1870 – 1917), T., 2000
- 2 Prezident «Yangi O'zbekiston» va «Uchinchi Renessans» iboralariga izoh berdi: <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/yangi-ozbekiston-va-uchinchi-renessans>
- 3 “Oyna” jurnali, 1913 yil, 1-son, 12-14-betlar.
- 4 1914–yil “Sadoi Farg'ona” gazetasining 6-iyundagi soni

REFERENCES

1. Pidayev T., Matbuot – millat chirog'i, T., 1999; Abduazizova N., Turkiston matbuoti tarixi (1870 – 1917), T., 2000
2. Prezident «Yangi O'zbekiston» va «Uchinchi Renessans» iboralariga izoh berdi: <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/yangi-ozbekiston-va-uchinchi-renessans>
3. “Oyna” jurnali, 1913 yil, 1-son, 12-14-betlar.
4. 1914–yil “Sadoi Farg'ona” gazetasining 6-iyundagi soni